

YANGI O‘ZBEKISTONGA KUCHLI NOTIQLAR KERAK

Isroilov Azizbek Tojimamat o‘g‘li

Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi

“Aktyorlik san‘ati bo‘limi” sahna nutqi fani o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada notqlik shartlari, notqlik san‘ati va madaniyati, qonun qoidalari haqida fikr yuritiladi. Notiqning aslida ahli jamiyat azolari uchun kitob mutoaalasini o‘rni qanday ekanligi dalillar bilan keltiriladi. Pedagog uchun suhandonlikni o‘rni, ahamiyati qanday ekanligi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Voizlik, notqlik, ta’sirchanlik, jaholat, chechan, mafkura, mexanizm, prinsip, noverbal, psixologiya, etika, estetika, pedagog, lingvistik.

ABSTRACT: This article discusses the terms of public speaking, the art and culture of public speaking, and the rules of the law. The role of the public speaker in reading books for members of society is presented with evidence.

Keywords: Preaching, eloquence, impressiveness, ignorance, eloquent, ideology, mechanism, principle, non-verbal, psychology, ethics, aesthetics, pedagogy, linguistics.

“Manaviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimiz”.

(Sh.Mirziyoyev)

Darhaqiqat, bu, tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ommaviy kommunikatsiyalar ayni avj olayotgan vaqtda, ayniqsa, g‘oyalar kurashi keskin tus olgan paytda mazmundor mohiyatga ega nutq ham, mahoratli, fikri teran, so‘zga chechan notiqalar ham suvdek, havodek zarur. Chunki asosli, hayotiy, samarali

targ‘ibot va tashviqotgina xalqni ishontiradi, ruhlantiradi, ulug‘ va qutlug‘ maqsadlar sari ilhomlantiradi. Aks holda, dushman undan ustomonlik bilan foydalanib omma ongini zaharlashi, turli oqimlar tomon og‘dirishi, asosiy maqsaddan chalg‘itishi, yo‘ldan ozdirishi hech gap emas. Jangda sen dushmanni otmasang, u seni otadi. Bu oddiy mantiq, oddiy haqiqat. Notiqlik mahoratidan unumli foydalana olsak, biz hamisha g‘olibmiz. Hozirgi zamonda xalq qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan paytda muhim mafkuraviy qurol – notiqlik mahoratini chuqur egallashimiz kerak. Ushbu jaholatga qarshi ma‘rifat yarog‘idan, mafkuraviy mexanizmdan ayniqsa, yoshlar to‘la va to‘g‘ri foydalana olishi kerak. Shuning uchun ham Prezidentimiz nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shunchaki muloqot va muomala manbai emas, balki ma‘rifat va ma‘naviyatning, targ‘ibot va tashviqotning quroli sifatida his etib, bundan foydalana olish milliy g‘oyamiz himoyasiga daxldor ekanini uqtirayotgan bo‘lsalar ajab emas. Chunki g‘oyamiz – himoyamiz, himoyamiz esa g‘oyamizdir. Bu esa mafkuraning mayog‘i, g‘oyamizning bayrog‘i va yarog‘i notiqlik mahoratini egallash bilan amalga oshadi. Haqiqatdan ham bu, notiqlik, muomila madaniyati, maftunkor go‘zal, shirali ovoz ko‘ngillarni tortuvchi sohalardan biridir. Notiqlik deganda eng avvalo tasavvurimizga ikki jumla “Assalomu alaykum” kalomini ifodali hamda ta’sirli qilib so‘zlagan, ayniqsa, yoqimli ovozda fikrni aniq va tushunarli holda tinglovchiga yetkazib beruvchi kasb egasi keladi. Taniqli, mutafakkir adib Fitratning “Bu dunyo kurash maydonidir. Sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir”, – degan so‘zlarini ham bu so‘zlarimizni dalilidir.. Aqlan, ruhan va jismonan sog‘lom avlod barkamol bo‘lganidek, xulqiy va nutqiy madaniyatga ega bo‘lgan inson komil inson sanaladi.

Sharq mutafakkiri Kaykovus o‘zining «Qobusnoma»sida «Insondagi hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir»-deb, atoqli adib Skilef «Chiroyli gapirib bilish pul, hokimiyat va mashhurlikdan qimmatroqdir. Chunki ularning barchasiga chiroyli gapirib bilish evaziga erishiladi», siyosatshunos Vebster «Mendan hamma narsani oling, uy-joy, mulk, mashina, menga faqat so‘zlash qobiliyatini qoldirsangiz bas. Yo‘qotgan narsalarimni o‘n baravar qilib qaytarib olaman,» Chonsi

M. Depyu «Hech bir qobiliyat insonni jamiyat tomonidan zudlik bilan tan olinishi va yuqori mavqelarga erishishida notiqlikdek imkon bera olmaydi» – deya bejiz yozishmagan. Xoh tinchlik, xoh urush sharoitida bo‘lsin, kuchli notiqlarning nutqi, voizlarning va’zi chorlov ohangida, da’vatkorona tarzda bo‘lgan. Xalqni ruhlantirgan, safarbar etgan.

Hamma gap nutq madaniyati, tushuntirish usuli, targ‘ibot va tashviqot shakllarida. Buni chuqur egallamasak, ildamlilik ham, ish unumi, istiqbolli rejalar ham amalga oshmaydi, dilxiraliklar sodir bo‘laveradi, xolos. Yuqorida aytib o‘tilganidek ,notiqlik san’atini puxta egallanmasa, har qanday shaxs muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shu sababdan har bir kishi nutq madaniyatini mukammal o‘zlashtirishi mumkin. Ammo har bir shaxs ,san’atkor notiq bo‘lavermaydi. Go‘yo notiq suv tubida yotgan chig‘anoq ichidagi durni qidirayotgan g‘ovvozga o‘xshaydi. U izlanuvchan ,kuchli motivator va bunyodkor bo‘lmog‘i lozim. Notiq so‘zlarni o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llay olsa ipga durni terganday bo‘ladi. Notiq o‘zi yoqimli, so‘zlari esa yuqumli bo‘lmog‘i kerak. U har bir ma’noli so‘zi bilan tinglovchining ma’naviy chanqog‘ini qondirsa, nutqiy go‘zalligi bilan sahna markazini larzaga solsin. Shundagina u haqiqiy voizdir vaholanki unga buyuklik va suyuklik nisbati beriladi. Davraning ko‘rki, davradagi mehmon va tomoshabinlarning o‘zining nutqi bilan yig‘ilganlarni rom qiluvchilar suhandonlardir. Suhandon fors tilidan suhan –so‘z, don-so‘zini aytuvchi, yani bundan so‘zni chiroyli aytuvchi degan ma’no anglanadi. Suhandonlar ham o‘qituvchidek o‘z nutqida umumiylik tamoillardan qochib, asosan, yetkazishi lozim bo‘lgan fikrni xususiylik prinsipida bayon qilsagina, tinglovchi tafakkuri hamda shuuriga kirib borishiga erishadi. Masalan, tantanali marosim, tadbirlarda suhandon o‘z nutqi bilan tilak va istaklarini izhor qilishi, tabriklar aytishi, she’r nazm o‘qishi kabi nutqiy xatti-harakati bilan kutilgan natijaga erisha oladi. O‘qituvchilik yoki suhandonlik kasbimi har ikkisida ham ovoz ustida muntazam ishlash, ovozini sozlash, sayqallash, muhim fikrni asoslay olish, misollar keltirib, ba’zan kuldirib, ba’zan esa yig‘latib, ba’zan juda o‘yga toldirib, yoki ko‘tarinki motivatsiya uyg‘otuvchi nutqqa erishish kerak. Xo‘sh buning uchun masalaga qanday yondashish kerak? Ha darhaqiqat o‘rinli savol

bo‘ldi. Eng avvalo, kitob mutoaalasi deya javob bergan bo‘lardik. Notiqlikning birinchi sharti bu kitobni qo‘ldan qo‘ymaslikdir. Chunki kitob mutoaalasi inson tafakkurini, fikrlash salohiyatini o‘stirsa, boshqa bir jihatdan inson ruhiy olamining ko‘zgisiga boqa olish va uni ongli jihatdan uqiy olish malakasini oshirib beradi. Maksim Gor’kiyning “Ijodning bir foizi iste’dod, qolgan to‘qson to‘qqiz foizi mehnat”,-degan fikri chindan ham biz yuqorida keltirilayotgan fikrlarimiz tasdig‘idir. Harakatsiz, mashaqqatsiz cho‘qqiga erishib bo‘lmaydi. Bu bir oylik yoki bir yillik emas, doimiy izlanish va mashq qilish orqali ro‘yobga chiqadi. So‘z so‘zlash madaniyati insonning o‘zligi uchun ko‘zgudir. Kishi fikrining aniq, samimiy va ta’sirli etib borishi so‘zlovchining til va uning harakatdagi ifodasi bo‘lgan nutq qoidalarini qanchalik bilishi va amal qilishiga bog‘liq. Notiqlikning yana bir xususiyatlaridan biri bu murakkab sintetik mohiyatga ega. Falsafa, mantiq, psixologiya, pedagogika, tilshunoslik, etika, estetika–mana shu fanlar notiqlik san’atining asosidir. Turli xil yo‘nalishdagi mutaxassislar notiqlikning turli muommolari bilan qiziqishadi. Masalan, tilshunoslar og‘zaki nutq madaniyati nazariyasini ishlab chiqadilar, so‘zlovchilarga ona tili boyliklaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradilar. Psixologlar nutqiy xabarni idrok etish va ta’sir qilish masalalari bo‘yicha, ommaviy nutq paytida diqqatning barqarorligidagi muommolar bilan shug‘ullanadilar. Kishining ijtimoiy – psixologik birligi sifatida tinglovchilar psixologiyasini ham o‘rganadi. Mantiq o‘z haqiqatini ko‘rsatishga va raqiblarning o‘z bayonotlarini isbotlashga o‘rgatadi. Tarix esa, notiqlik san’atining paydo bo‘lishi va rivojlanishining, hayotiy masalalar yuzasidan erkin fikr almashining eng muhim sharti, ilg‘or g‘oyalarning harakatlantiruvchi kuchi, tanqidiy fikr yuritishning demokratik shakllari, fuqarolarning siyosiy hayotdagi faol ishtiroki hisoblanadi. Notiqlik “Demokratiyaning ma’naviy tarbiyasi” deb bejiz aytilmagan. Taniqli ruxshunos olim, professor Erkin Sattorov “Omadga erishish psixologiyasi” nomli kitobida “Nutqiy kanal orqali axborot uzatiladi, noverbal kanal bo‘yicha esa muloqot sherigiga bo‘lgan munosabat uzatiladi”, degan fikrni keltiradi. Bir jihatdan yondashganda, e’tiroz yo‘qdek, lekin ular o‘zaro bog‘liq hodisa bo‘lib, noverbal kanal fikrni, ma’lumotni yetkazishdagi tasdiq

“yo‘llovchi va qo‘llovchi”vosita ekanligini ham e‘tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Notiq muomila jarayonida tinglovchi holatini, darajasini xis etish asnosida yo‘l tutishi muhim. Ma‘lumotni o‘zlashtirish va qabul qilish har bir insonda turlicha kechishini yaxshi bilamiz. Tasavvur qiling, dars jarayonida o‘qituvchi e‘tiborsizroq o‘quvchi yoniga borib qo‘l harakati bilan uning boshini silab o‘tib ketsa, o‘quvchiga qanchalik ta‘sir etishi mumkin, ayni damda muloqotning samimiy bo‘lishini sezish ham qiyin emas. O‘qituvchining o‘quvchini tushunishi va his etishi, fanda identifikatsiya va empatiya terminlari bilan yuritiladi. Bular odamlarning o‘zini o‘zgaga ko‘chirishi orqali o‘sha vaziyatda, uning o‘zi qanday yo‘l tutishi mumkinligini o‘ylashi va uni his etish jarayonlarini anglatadi. Shunday ekan tinglovchiga mavzuning bayoni va mazmuni yuz foiz yetib bormasligi aniq. Har qanday holatda ham tinglovchi mavzuga qanchalik diqqat qilmasin ,ma‘lumotning yetib borishida juz‘iy yo‘qotishlar bo‘lishi tabiiy. Demak, har qanday holatda ham mavzuni to‘la yetib borishi mushkul ekan. Lekin mavzuni o‘quvchi ongu shuurida to‘liq o‘zlashtirishi va xotirada mustahkamlashi uchun turli interfaol metod va zamonaviy padtexnologiyalardan foydalanish zaruratini yoddan chiqarish yaramaydi. Bunda o‘quvchi faolligi, qiziquvchanligi, ijodkorligiga ko‘proq e‘tibor qaratish foydadan xoli emas. Pedagog so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “Bola yetaklovchi” demakdir. Nutqiy jarayonda ham shunga monant holat kuzatiladi. Yani, notiq yetaklovchi va tinglovchi –etaklanuvchi. Bu jarayonda yetaklovchi bilim, ko‘nikma, malaka va tajriba intellektual kuchga ega bo‘lmas ekan,murod hosil bo‘lmasligi ayon.Shuning uchun ham pedagogning mafkuraviy salohiyati ,ongli potensiyali yuqori bo‘lishi o‘ta muhim. Lingvistik va nutqiy kompentatsiya notiqlikning asosidir. Notiqning uquvi tinglovchining aqlu tuyg‘usiga ta‘sir etib, uning diqqatini tortmasa ta‘lim ta‘sirchanligi haqida ham so‘z bo‘lishi mumkinmas. Tinglovchi e‘tibori notiq yoki o‘qituvchining e‘tiborida bo‘lmas ekan, ta‘lim o‘z samarasini bermaydi.Diqqat –e‘tibor masalasi hamisha muhim ustuvorlardan biridir. Nimagadir chalg‘igan o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi sust va past bo‘lishi aniq bir jarayon. Shuning uchun ham, mashhur Dante Alig‘eri “Diqqatdir –suhbatning asl asosi”,-deyishi bilan haqli edi. Tinglovchi diqqat e‘tiborini tortmasdan

aytilayotgan so‘z bamisoli nishonga olmasdan o‘q uzayotgan ovchining holatini eslatadi. Ovchining maqsadi o‘ljani mo‘ljalga olish emasmi, axir. Demak, kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, so‘z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. “Notiqlik”, “voizlik”, “ ritorika”, “xatoba” va yana bir qanday san’atlardir. Turli tillarda turlicha aytilishidan qat’iy nazar, mohiyati mushtarak bo‘lgan ushbu san’at har bir davrda zamonning o‘z mafkurasiga xizmat qilib kelgan. Darhaqiqat hulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz joizki, bu san’atdan Amir Temur, Navoiy, Boburlar ham, Chingizxon, Lelin hatto Gitler, Gebel’slar ham o‘z vaqtida davlat va xalq manfaatlarini himoya etish yoki aksincha, unga qarshi foydalanishda unumli samaradorlikka erishishgan. Demak, voiz va voizlik san’atining sir –asrorlari va mohiyatini chuqur bilish kerak. Notiq o‘zi ham so‘zi ham joiz yani manzur bo‘lishi uchun chuqur bilim va malakaga, yetuk dunyoqarash ,saviyaga ega bo‘lishi darkor. Toki, uning har bir so‘zi xalq tinchligi, yurt faravonligi, vatan kelajagi, ravnaqiga xizmat qilsin. Qanday yoshda, qanday kasbda bo‘lishdan qat’i nazar, qay sohada ishlamaylik, nutq jarayonida faollik bizga suv va havodek zarur. Qay fandan dars bermaylik yoki ta’lim olmaylik,biz unga ehtiyoj sezaveramiz. U barcha fanlarni shematik bog‘lab turuvchi oltin zanjirdek go‘yo. Uni ta’bir joiz bo‘lsa, insonning tirikligiga mezon bo‘lgan ikki qon tomiri, yani vena va arterial qon aylanish tizimiga o‘xshatish mumkin. Bu qon tomirlarning biri nutq madaniyati bo‘lsa, ikkinchisi notiqlik san’atidir. Shunday ekan fikrimni tasdiqi sifatida chindan ham bu, tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ommaviy kommunikatsiyalar ayni avj olayotgan vaqtda, ayniqsa, g‘oyalar kurashi keskin tus olgan paytda mazmundor mohiyatga ega nutq ham, mahoratli, fikri teran, so‘zga chechan notiqalar ham suvdek, havodek zarur deb o‘ylayman

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Rahimboy Jumaniyozov “Siz notiq bo‘lmoqchimisiz”. 2019
- 2.Siseron “Notiqlik san’ati”. 2018
- 3.Internet saytlari:
4. <https://xs.uz.>post>kitob> haqida.....
5. <https://hozir> org.toshkent davlat sharqshunoslik instituti 2017.06.08